SURXONDARYO VILOYATI QIZIRIQ TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 12-iyul | 167-8-113-Q/24 | Qiziriq tuman hokimligi

Qiziriq tumani hududidan o‘tuvchi davlat ahamiyatiga ega 4R-100 avtomobil yo‘lining 82-83 km oralig‘i hamda 4R-103 avtomobil yo‘lining 22-23 km oralig‘ida yo‘lning har ikki tomoniga 3.27 (to‘xtash ta’qiqlanadi) yo‘l belgilarini o‘rnatish hamda ushbu hududdagi mavjud eski namunadagi barcha yo‘l belgilarini zamonaviy, yangi namunadagi yo‘l belgilariga almashtirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 26-iyul kunidagi 584-sonli “Avtomobil yo‘llari infratuzilmasini yanada rivojlantirish va yo‘l harakatini tashkil etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risda”gi Qarori O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Yo‘l xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018-yil 19-maydagi 377-son Qarorlari ijrosi talablarini ta’minlash va kelgusida sodir etilishi mumkin bo‘lgan yo‘l transport hodisalarini oldini olish maqsadida hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6,25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Qiziriq tumani Ichki ishlar bo‘limining 2024-yil 15-maydagi 24/841-sonli xati inobatga olinsin.

2. Qiziriq tumani “Oqjar” mahallasi hududida joylashgan “Istara dehqon bozori” oldidan o‘tuvchi davlat ahamiyatiga ega 4R-100 avtomobil yo‘lining 82-83 km oralig‘i hamda 4R-103 avtomobil yo‘lining 22-23 km oralig‘ida yo‘lning har ikki tomoniga tirbandlikning oldini olish hamda avtomobillarning va piyodalarning xavfsiz harakatlanishini ta’minlash maqsadida 3.27 (to‘xtash ta’qiqlanadi) yo‘l belgilari o‘rnatilsin hamda ushbu hududdagi mavjud eski namunadagi barcha yo‘l belgilari zamonaviy yangi namunadagi yo‘l belgilariga almashtirilsin.

3. Tuman “Yo‘llardan foydalanish” DM (S.Qobilov)ga;

Mazkur hududga belgilangan tartibda yo‘l belgilarini o‘rnatish va yangilash vazifasi topshirilsin.

4. Tuman IIB YHXB (F.Ergashev)ga;

Ushbu yo‘l belgilari o‘rnatilishini hamda yo‘l belgilari o‘rnatiladigan hududda transport vositalarining harakatini tartibga solinishini nazorat qilib borish vazifasi yuklatilsin.

5. Mazkur qaror xalq deputatlari tuman Kengashining navbatdagi sessiyasida ko‘rib chiqilsin.

6. Ushbu qaror tuman “Taraqqiyot” gazetasida chop etilsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

7. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari Sh.Qo‘ziyev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **A.X.ORIPOV**

Qiziriq tuman hokimining
2024-yil 12-iyuldagi
167-8-113-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Tuman adliya bo‘limi boshlig‘i
B.Chorshanbiyevga

Ushbu orqali Sizga shuni yozib ma’lum qilamanki, hozirgi kunda “Ye-qaror” platformasiga ulanmaganligimiz sababli, tuman hokimining “Qiziriq tuman xududidan o‘tuvchi davlat ahamiyatiga ega 4R-100 avtomobil yo‘lining 82-83 km oralig‘i hamda 4R-103 avtomobil yo‘lining 22-23 km oralig‘ida yo‘lning har ikki tomoniga 3.27 (to‘xtash ta’qiqlanadi) yo‘l belgilarini o‘rnatish hamda ushbu xududdagi mavjud eski namunadagi barcha yo‘l belgilarini zamanoviy, yangi namunadagi yo‘l belgilariga almashtirish to‘g‘risida”gi qaror loyihasiga tegishli xulosa berishingizni so‘rayman.

Tuman IIB JXX YHXG katta inspektori **F.Ergashev**

09.07.2024 йил.